

TIBBIYOTGA OID QISQARTMALARNING O'ZBEK TILIDA BERILISHI MUAMMOLARI

Dildora Abdirashidova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: p.f.d, professor **G.A. Asilova**

Annotatsiya. Maqolada tibbiyotga oid qisqartmalarni tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Tibbiyotga oid terminlarning kelib chiqishi, tasniflanishi va ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilingan. Terminlarning yasalishida ishtirok etadigan affikslar va prefikslar ko'rib chiqilgan. Tibbiy terminlardan hosil bo'lgan qisqartmalarning muhim vazifikasi va ulardan foydalanishning muammoli jihatlari yoritib berilgan. Tibbiy soha vakillariga o'zbek tilini o'rgatish jarayonida asos so'zlar, prefiks va affikslarning lotin va o'zbek tillaridagi qiyoslanishi amalga oshirilgan, ularni o'rgatishning samarali usullari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: termin, tibbiyot, qisqartma, asoz-so'zlar, affikslar, prefikslar.

PROBLEMS OF MEDICAL ABBREVIATIONS IN UZBEK

Annotation: The article talks about the specific features of translating medical abbreviations. The origin and classification of medical terms and the difficulties that arise in the process of their translation are analyzed. Affixes and prefixes involved in the formation of terms are considered. The important function of abbreviations derived from medical terms and the problematic aspects of their use are highlighted. In the process of teaching the Uzbek language to the representatives of the medical field, a comparison of basic words, prefixes and affixes in Latin and Uzbek languages was carried out, and effective methods of teaching them were shown.

Key words: term, medicine, abbreviation, base words, affixes, prefixes.

Tibbiyot sohasi har bir mamlakatning yirik va eng muhim sohalaridan biri sifatida ko'plab tarmoqlarga ega. Jumladan, nevrologiya, ginekologiya, pediatriya, urologiya va boshqa qator bo'limlari mavjud bo'lib, bu yo'nalishlarning barchasi o'zining terminologik lug'at tarkibiga ega. Tibbiyotga oid terminlarning aksariyati lotin tilidan kirib kelgan va tarjima jarayonida ko'plab noaniqliklarga sabab

bo‘lmoqda. Lotin tili asoslarini o‘zlashtirmsandan turib, tibbiy ta’limni o‘rganib bo‘lmaydi. Lotin tilini o‘rganish tibbiyot mutaxassisini tayyorlashda katta ahamiyatga ega, chunki u lotin-yunon tilidan kelib chiqqan tibbiy atamalarni ongli ravishda o‘zlashtirishga va tushunishga yordam beradi. Talabalar ular bilan tanishadilar va o‘zlarining amaliyotida qo‘llaydilar. Qadim zamonlardan shifokorlar orasida quyidagi lotin maqoli mashhur bo‘lgan: Invia est in Medicina via sine lingua Latina – lotin tili tibbiyotga eltuvchi yo‘l. Bu maqol bizning davrimizda ham dolzarbdir.

Har bir sohaning o‘z terminologiyasi – soha tili bor. Unda har bir termin va atama o‘z ma’nosida qo‘llanishi kerak, chunki bu aniq ilmiy tushunchani bildiruvchi so‘z, asosiy o‘zgarmas qismidir [1; 4].

Ma’lumki, tilni soha yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitishda ta’limida samaraga erishish usullaridan biri lug‘at bilan ishslashdir. Tibbiyotga oid lug‘atlarning turlari ham kundan-kunga ko‘payib bormoqda [3; 25]. Tibbiyot yo‘nalishi bo‘yicha ko‘plab lug‘atlar yaratilgan. Xususan, Azimjon Qosimovning “Botanikadan qisqacha izohli lug‘at” (1990) [5], “Ruscha-o‘zbekcha-lotincha dorivor o‘simliklar lug‘ati” (1992), “Dorivor o‘simliklar” (1994), “Inglizcha-o‘zbekcha-ruscha anatomik terminlar lug‘ati” (2006) kitoblari chop etilgan. Shuningdek, A.Qosimovning “Tibbiyot xodimlari lug‘ati” (1998), 4 jildlik “Tibbiy terminlar izohli lug‘ati” (2003, 2008) [4] soha mutaxassislari va keng kitobxonlar ommasiga ma’lum.

Tibbiyot sohasida ko‘plab lug‘atlar paydo bo‘lishiga qaramay, avval chop etilgan lug‘atlar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Biroq, terminlar tarjima qilinganda ba’zan ularning umumiy ma’nosini o‘zgarib ketadi, bu esa ularni tushunish jarayonida ko‘plab qiyinchiliklar keltiradi.

Tibbiy terminlarning yasalishida lotin tilining qator prefikslari va affikslari asosiy o‘rin egallaydi. Ular yordamida tibbiyotga sohasiga oid qator terminlar hosil bo‘ladi. Quyida ularga misollar keltiramiz. Masalan: Bi+ logy = biology (ikki karra o‘rganish).

Tibbiy terminlarning yasalishida ishtirok etuvchi prefikslar ro‘yxati:

- Anti – qarama-qarshi
- Bi – ikki, ikki barobar
- Brady – sekin
- De – uzoqda, pastga
- Dys – g‘ayritabiyy, qiyin, og‘riqli
- Endo – ichkarida, ichki
- Epi – ustiga, ustida, yuqorida
- Hyper – haddan tashqari, me’yordan ortiq
- Hypo – me’yordan past, yetishmaydigan

- Inter – orasida
- Intra – ichkarida
- Macro – katta, ajoyib
- Micro – kichik
- Neo – yangi
- Poli – ko‘p, juda ko‘p
- Post – keyin, orqada
- Pre – oldin, oldida
- Pro – oldin, oldida
- Re – yana, orqaga
- Sub – ostidaa, pastda
- Super – yuqorida, tashqariga
- Tachy – tez-tez
- Trans – bo‘ylab orqali

Tibbiy affikslar (qo‘sishimchalar) ro‘yxati:

- -algia – og‘riq
- -centesis – suyuqlikni olib tashlash uchun jarrohlik ponksiyon
- -ectomy – tananing bir qismini yo‘li bilan olib tashlash
- -emia – qon holati
- -itis – yallig‘lanish
- -logy – o‘rganish
- -oma – o‘simta, massa
- -osis – g‘ayritabiiy holat
- -atomy – kesish,
- -pathy – kasallik, azob
- -rrhea – oqim
- -scopy – vizual tekshirish
- -oma – shish
- -emia – qon holati
- -blast – portlash, yetilmagan hujayra
- -cyte – hujayra
- -penia – yetishmovchilik
- -emia – qon holati
- -plasty – jarrohlik tuzatish
- -rrhage – otilib chiqish

Tibbiy terminlarni hosil qiluvchi asos-so‘zlar

Bunday so‘zlar butun atamani tashkil etuvchi asosiy so‘zlardir. Ular atama yoki terminni yasash uchun prefiks va/yoki qo‘shimchalar bilan birlashtiriladi. Bu asos-so‘zlar tana a’zolari (yurak, jigar, buyrak) yoki inson organizmining siydik, qon, hujayralar kabi qismlari nomlaridan kelib chiqadi. Masalan: Cardio + logy = Cardiology. Neuro + logy = Neurology. Quyida eng ko‘p qo‘llanadigan asos-so‘zlarga misollar keltirilgan.

Asos-so‘z	Ma’nosи
Blast	Jinsiy yetilmagan hujayra
Carcino	Saraton
Cardio	Yurak
Cyto	Hujayra
Derma	Teri
Histio	To‘qima
Nephо	Buyrak
Neuro	Nervlar
Onco	Massa/tumor
Ostero	Suyaklar
Paed	Bola
Tox	Zahar
Uria	Siydik

Tibbiyot sohasida terminlarning qisqartmalari ham ko‘p qo‘llanadi. Masalan, *OITS (Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi)* qisqartmasi hozirgi vaqtida nutqda faol qo‘llanadigan qisqartmalardan hisoblanadi.

Qisqartma so‘zlar muloqotni tezlashtirish maqsadida, ayniqsa uzun so‘zлarni talaffuz qilishdan qochish vaqtida vujudga keladi. Bu esa ushbu qisqartmalarning keyinchalik ommalashib, faol lug‘atga kirib ketishiga sabab bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan qisqartmalarning qo‘llanish doirasi kengayib, xalqaro miqyosda qo‘llana boshlaydi.

Ma’lumki, qisqartma – bu so‘z yoki iborada har bir so‘zning birinchi harfidan (yoki birinchi bir nechta harflaridan) hosil bo‘lgan so‘z. So‘zлarning bosh harflaridan birlashtirilgan harflar, kundalik tilning bir qismiga aylanadigan yangi so‘zni hosil qiladi. So‘zlar yoki iboralarning qisqartirilgan shakllaridan foydalanish muloqotni tezlashtiradi.

– qisqatrтmalar nafaqat vaqtни tejash uchun, balki tinglovchiga qisqa ma’lumot berish qo‘llaniladi;

– ayrim hollarda, so‘zlovchining nutqida qisqartmalardan foydalanishi,—vaqtini tejash uchun emas, tinglovchini o‘zining nutqiga qiziqtirish maqsadida qo‘llanadigan usul hisoblanadi.

Tibbiyot sohasida qo‘llanadigan qisqartmalar ba’zan terminning ma’nosi o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi. Chunki terminlar lotin tilidan kirib kelgan va tibbiy atamalarning umumiyligi soni noma’lum. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, zamonaviy tibbiyotning terminologik fondi 500 ming tibbiy atamalardan oshadi. Agar bundan yuz yil avval bilimdon shifokor zamonaviy terminologiyani yaxshi bilgan bo‘lsa, hozirda bir necha yuz ming tibbiy atamalarni o‘zlashtirishning deyarli imkoniy yo‘q. Hatto ularni shunchaki yodlash ham hali hech kim uchun imkoniy bo‘lmagan, shuning uchun lotin tilida, boshqa tillarda bo‘lgani kabi, ma’lum elementlardan atamalarni so‘z yasash tizimi va qoidalarisiz amalga oshirib bo‘lmaydi [1; 5]. Qisqartmalarni hosil qilishning umumiyligi qoidalari yoki yondashuvlariga rioya qilish maqsadga muvofiq, chunki kasalxonalar, laboratoriylar, klinikalar va hokazolar kabi sog‘liqni saqlash muassasalarini faoliyatida ko‘plab qisqartmalar qo‘llanadi. Quyida tibbiyot muassasalarida faol qo‘llanadigan qisqartmalarga misollar keltirilgan.

Ingliz tilida	O‘zbek tilida	To‘liq nomi
AIDS	OITS	Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi
ADH	ADH	Antiuretik gormon
BMD	BMD	Suyak massasining zichligi
BMI	BMI	Tana massasi indeksi
BP	BP	Qon bosimi
CPN	CPN	Jamoat psixiatri hamshirasi
COPD	KOAH	Surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi
CT Scan	KTni tekshirish	Kompyuter tomografiysi
DM	DM	Qandli diabet
DVT	DVT	Chuqur venoz tromboz
Dx	Dx	Diagnostika,tashhis qo‘yish, tashhislash
ECT	EKT	Elektrokonvulsiv terapiya
EKG	EKG	Elektrokardiogramma
ELISA	ELISA	Fermentga bog‘liq immunosorbent tahlili
ENT	KBB	Qulqoq, burun va tomoq
ET	ET	Embrion transferi
ETT	ETT	Endotraxeal naycha
FBC	FBC	To‘liq qon ro‘yxati
FHR	FHR	Homilaning yurak urishi
Fx	Fx	Sinish
GA	GA	Homiladorlik davri

GBC	GBC	O't pufagi karsinomasi
GFR	GFR	Glomerulyar filt ratsiya tezligi
GH	GH	O'sish gormoni
GHRH	GHRH	O'sish gormoni chiqaradigan gormon
GIFT	GIFT	Gametaning intrafollopiyaga o'tishi
GOD	GOD	Glyukoza oksidaza
GU	GU	Oshqozon yarasi
HAART	HAART	Yuqori faol virus terapiya
HAI	HAI	Sog'liqni saqlash bilan bog'liq infeksiya
Hb	Hb	Gemoglobin
HIV	OIV	Inson immunitet tanqisligi virusi
HLA	HLA	Inson leykotsitlari antigeni
HPV	HPV	Inson papillomovirusi
ICU	ICU	Reanimatsiya bo'limi
IHC	IHC	Immunogistokimyo
IM	IM	Mushak ichiga
Ig	Ig	Immunoglobulin
IV	IV	Vena ichiga yuborish
IVF	IVF	In vitro urug'lantirish
LFT	LFT	Jigar funksiyasi testi
LHRH	LHRH	Luteinlashtiruvchi gormon-relizing gormoni
MICA	MICA	Ruhiy kasallik va kimyoviy suiste'mol
MRI	MRI	Magnit – rezonans tomografiya
NICU	NICU	Neonatal intensive terapiya bo'limi
NMR	NMR	Yadro magnit rezonansi
OT	OT	Kasbiy terapiya
PACU	PACU	Anesteziyadan keyingi parvarish bo'limi
PBX	ATS	Probiotiklar
PK	PK	Protein kinazasi
RAPD	RAPD	Nisbiy afferent pupila nuqsoni
RFLP	RFLP	Fragment uzunligini cheklash polimorfizmi
RFT	RFT	Buyrak funksiyasi testi
Rh	Rh	Rhezus faktor
RIA	RIA	Radioimmunaassay
SARS	SARS	O'g'ir o'tkir respirator sindrom
TGF	TGF	O'simta o'sish omili
TFT	TFT	Qalqonsimon bezning ishlash testi
UTI	UTI	Siyidik chiqarish yo'llari infeksiyasi
VFV-fib	VFV-fib	Qorincha fibrilatsiyasi
WAT	WAT	Oq yog' to'qimasi

Bu qisqartmalar tibbiyot xodimlari bilishlari shart bo‘lgan nomlardir. Berilgan qisqartmalar tibbiyot sohasining eng ko‘p uchraydigan terminlari bo‘lib, bu qisqartmalar shifokorlarning kundalik faoliyatida har kuni uchraydi.

Bugungi kunda hamma sohalar elektronlashtirilgan, shifoxonalarda turli zamonaviy elektron ilovalardan foydalaniladi. Elektron ilovalarga esa ko‘p terminlarning qisqartma shakllari kiritilgan.

Shu bilan birga, nafaqat shifokorlar, balki tibbiyotga qiziqadigan insonlarga ham bu terminlar kerak bo‘lmoqda. Kundalik hayotimizda, turli xil dorilardan, tibbiy uskunalardan hamda uy shariotida xalq tabobati singari usullardan keng foydalaniladi hamda shu jarayonda dori vositalarini, uskunalarini to‘g‘ri qo‘llay olish kasallikni tezroq yengishga, uning asoratlarini tez bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, tibbiyotga oid terminlar va qisqartmalarni to‘g‘ri qo‘llay olish, omma uchun tushunarli hamda qulay terminlar yaratish, ushbu sohani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu soha vakillariga o‘zbek tilini o‘rgatish jarayonida asos so‘zlar, prefiks va affiks qo‘srimchalarini lotin va o‘zbek tili bilan solishtirib, ma’nolarini tushuntirib o‘rgatish eng samarali yo‘llardan biri bo‘ladi. Bu ma’lumotlar tilshunoslar uchun ham dolzarbdir, aynan terminlarni o‘rganish jarayonida bevosita so‘zning kelib chiqishi, haqida ham ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abrayeva Sh.S. Lotin tilining tibbiyot bilan aloqasi va madaniyati // “Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar” mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – T.: TMA Conference, 2023. – B. 4-11.
2. Akramova Z., Baxtiyorova Sh. Tibbiy matnlarni tarjima qilish // Academic research in educational sciences. – T.: TMA Conference, 2023. – B. 596-603. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tibbiy-matnlarni-tarjima-qilish/viewer>
3. Асилова Г.А. Терминологик луғатларда замонавий божхона ва солиқ атамаларининг берилиши масалалари // Халқ таълими. – Т., 2016. №5. – Б. 24–27.
4. Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати. 4 жилдлик. Жилд I – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003. – 472 б. Жилд II – – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003. – 568 б. Жилд III – Т.: Мехридарё, 2008. – 576 б. Жилд IV – Т.: Мехридарё, 2008. – 480 б. URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/tibbiy-terminlar-izohli-lugati-4-jildlik-azimjon-qosimov>
5. Қосимов А., Набиев М. Ботаникадан қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 80 б. URL:[https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Botanikadan%20qisqacha%20izohli%20lug'at%20\(A.Qosimov,%20M.Nabiiev\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Botanikadan%20qisqacha%20izohli%20lug'at%20(A.Qosimov,%20M.Nabiiev).pdf)
6. <https://www.virohan.com/blog/medical-terminology>